

**TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA SHARQ MINIATYURA
SAN'ATI ASARLARI NAMUNALARIDAN NUSXA
KO'CHIRISH MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.**

Baxtiyor O'taboyev

JDPI Ts va Mg kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Umumiy ma'noda o'qituvchi o'quvchilardan mutloqo miniatyura uslubida illyustratsiya ishlashni qat'iy talab sifatida qo'ymasligi lozim. Muximi o'quvchilar tomonidan miniatyura elementlarini talqin qilishda. Bu borada o'quvchilarga namoyish etiladigan illyustrativ materiallar muxim axamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'qituvchi darsda foydalilaniladigan illyustrativ materiallarni tanlab olishga xam jiddiy e'tibor qaratishi lozim.

Аннотация: Как правило, учитель не должен заставлять учеников работать над миниатюрной иллюстрацией. Важно, чтобы учащиеся интерпретировали миниатюрные элементы. В этом отношении важны иллюстративные материалы, представленные студентам. Поэтому учителю следует уделять пристальное внимание выбору иллюстративных материалов, используемых на уроке.

Annotation: As a rule, the teacher should not force students to work on miniature illustrations. Importantly, the mine uchashchiesya interpretirovali miniature elements. In this otnoshenii vajny illustrative materials, presented to students.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, Miniatyura, Illyustratsiya, san'at, realistik uslub, darsning samaradorlik darajasi.

Maktab ta'liming yettinchi yiliga kelib o'quvchilar tasviriy savodxonligining asosiy qonuniyatlarini o'zlashtirgan bo'ladilar. Aslida tasviriy san'atning ifodaviy vositalari 5- sinfda o'tilsada, o'qituvchi arsenalida yetarli darajada metodik xamda illyustrativ materiallar bo'limganligi uchun muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Mutaxassislar tomonidan tayyorlangan ayrim metodik materiallar turli manbalarda, jumladan ilmiy-metodik журнallar saxifalarida berib borilayotgan bo'lsada (qarang: A.Sulaymonov. O'quvchilarda tasviriy san'atning ifodaviy vositalari xaqidagi bilimlarni shakllantirish. "Xalk ta'limi" журнали. 2011 yil, 1-сон. - 29 - 32-6.), amaldagi Davlat ta'lim standarta xamda o'quv dasturi asosida yaratilgan metodik manbalarning tankisligi o'qituvchi uchun ayrim mavzularni utishda kiyinchilik tugdiradi. Sharq miniatyura san'atiga oid darslar shunday mavzular

sirasiga kiradi. Shularni e'tiborga olgan xolda amaliyotchi o'qituvchi uchun metodik yordam sifatida Shark miniatyura san'ati bilan boglik bulgan mavzularni ugish metodikasiga oid materiallar taqdim etilmoqda. Chunki, 6-sinfning ikkinchi choragi to'lig'icha miniatyura san'atiga bagishlangan bo'lib, 6 ta mavzu (10 — 16- mavzular)ni o'tish uchun 7 soat vaqt ajratilgan. Agar yillik o'quv soati **34** soatni tashkil etishini e'tiborga oladigan bulsak, "Tasviriy san'at" o'quv fanida miniatyura san'atiga yetarli urin berilganligini kurish mumkin. Jumladan, sharkona tasviriy san'atning uslub va texnikalariga oid malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lган o'quv materiallari tasviriy san'at ta'limining muxim tarkibiy kismidir. Tasviriy san'at o'quv fanidan yillik ish rejasi buyicha 11-mavzu mazkur yo'naliш bo'yicha o'uvchilarning tasviriy savodxonligini shakllantirishda muxim qadam xisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi mazkur mavzuni o'tishda quyidagi metodik jixatlarga e'tibor qaratishi lozim.

Birinchi jixat. 10-mavzu bo'yicha Sharq miniatyura san'ati tarixi xamda miniatyura asarlarini taxlili qayta eslanib, miniatyura san'ati asarlarida musavvirlar tomonida kompozitsiya elementlari (odam, xayvon, daraxt, suv, o't-o'lanlar, tosh, tog', bulut va x.,k.)ni qo'llanilishi va ularni ishlash texnikasi haqida ma'lumot berish. Shu jarayonda ularni aloxida-aloxida ishlangan illyustrativ namunalari bo'lsa darsning samaradorlik darajasi yuqoriq bo'ladi. Malakali o'qituvchi qisqa muddatli maxorat darsi o'tishi xam mumkin.

Ikkinchi jixat. O'qituvchining mazkur darsga ko'rghan maxsus tayyorgarligi, ya'ni sinfda o'tiladigan dars mavzusi va mazmuniga mos muxit yaratilganligi.

Uchinchi jixat. O'qituvchi oldingi darsda, albatta mazkur darsning mavzusini e'lon qilgan xamda o'quvchilarga kerakli tavsiyalar asosida mos yo'naliш bergan bo'lishi lozim. Yo'naliшlarning mazmunida:

- turli mazmun va janrdagi illyustratsiyalarni mustakil o'rganish va taxlil qilish;
- adabiy manbalarning syujetlarini taxlil qilish;
- o'rganilgan (o'tilgan, mazmuni xotirada qayta tiklangan) asarning syjeti asosida kompozitsiya variantlari borasida mushoxada yuritish kabi tayyorgarlik ishlari amalga oshirilgan bo'lsa darsdan kutilgan natija olish mumkin buladi. Aks xolda ukuvchilar tomonidan darsning mavzusi, mog'iyatini anglash jarayonida yuzaga keladigan muammolar darsni risoladagidek tashkil etish xamda samarali yakunlash imkoniyatini bermaydi.

Turtinchi jixat. Darsni samarali kechishi o'quvchilarning diqqatini dars mavzusiga yo'naltirish, ularning ijodiy faolligini ta'minlash bilan bog'lik. O'uvchilarga dars mavzusiga aloqador savollar bilan murojaat etish ularni

faollashtirish vositalaridan biridir. Shu ma'noda o'qituvchining o'quvchilarga:

- Illyustratsiya nima?
- Miniatyura nima. Miniatyura va illyustratsiya atamalari nimasi bilan o'xhash yoki aksincha, nimasi bilan bir-biridan farqlanadi?
- Kitob illyustratsiyasi soxasida ijod kilgan kaysi rassomlar va ularning kaysi asarlarini bilasiz?
- Sharq miniatyura san'ati soxasida ijod kilgan musavvirlardan kimlarni bilasiz?
- Miniatyura uslubida badiiy bezatilgan qanday manbalarni bilasiz?
- Miniatyura uslubida ijod kilgan zamondosh rassomlardan kimlarni bilasiz?

Tabiiyki, o'ituvchi bu savollarga aniq va to'liq javob olishni maqsad qilmasligi lozim. Maksad o'uvchilarning diqqatini jalb etish, ularni o'yplash, fikrlashga undashdan iborat bo'lmg'i lozim. Savol-javoblar jarayonida o'qituvchi xdr bir savolga berilgan javoblarni o'zi to'ldirishi, u yoki bu rassomning ijodini qisqacha sharxda o'tishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Beshinchi jixat. O'qituvchining malakali xikoyasi, ya'ni o'qituvchi dars jarayonida qo'llanilgan illyustrativ materiallarni sharxlashi, darsning maqsadi va vazifalarini bolalarbop yo'sinda tushuntira bilishi lozim. Shuningdek, o'qituvchining pedagogik rasmi, ayniqsa o'quvchilarda qiziqish uyg'ota olishi, professional ijro nuqtai nazaridan o'quvchilar namuna sifatida qabul qila oladigan darajada bo'lishi lozim.

Oltinchi jixat. O'ituvchi dars o'tish jarayonida qiyosiy taxlil metodidan unumli foydalanishi zarur. Zero, o'quvchi boshlang'ich sinfdan beri adabiy asarlarga, xususan ertaklarga realistik uslubga asoslangan qonuniyatlar bo'yicha rasm ishlab kelgan. Miniatyurani esa o'ziga xos xususiyatlari, shartlilik va ramziylik jixatlari bo'lib, bu xususiyatlarni idrok etishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Umumiyligi ma'noda o'qituvchi o'quvchilardan mutloqo miniatyura uslubida illyustratsiya ishlashni qat'iy talab sifatida qo'ymasligi lozim. Muximi o'quvchilar tomonidan miniatyura elementlarini talkin kilishda. Bu borada o'quvchilarga namoyish etiladigan illyuerativ materiallar muxim axamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'qituvchi darsda foydalaniladigan illyustrativ materiallarni tanlab olishga xam jiddiy e'tibor qaratishi lozim. Rassom Abdukaxlor Maxkamovning "Shamchiroq tutgan mushuk", "Ziyod botir" nomli uzbek xalq ertaklariga ishlagan illyustratsiyalari bu borada uziga xos namuna vazifasini bajarishi mumkin. Chunki ular bir qarashda realistik uslubda yaratilgan bulsada, tog'lar, toshlar, daraxtlar, bulutlar aynan miniatyura san'ati elementlarining talqini sifatida o'ziga xos badiiy maxorat bilan

tasvirlangan.



Mahkamov. "Shamchiroq tutgan mushuk ".hamda "Ziyod botir " nomli o'zbek xalq ertaklariga ishlangan illyustratsiyalar.

O'qituvchi uchun yana bir muhim tavsiya: bolalarning barchasi uchun bir xil topshirik; berish maqsadga muvofiq emas. Bu omil xam kompozitsiya uchun manba, xam tasviriy vosita tanlashga taalluqli bo'lishi mumkin. Ya'ni kimdir akvarel buyoklarida ishlashni yoktirsa, kimdir ok-kora shaklida grafik usulda ishlashni xush ko'radi.

Tasviriy san'at, xususan kitob illyustratsiyasi tarixidan ma'lumki, tanikli rassom Telman Muxamedovning "O'zbek xalq ertaklari" turku midagi, Gafur G'ulomning "Shum bola" qissasiga, "Afandi latifalari"ga ishlangan rangli xamda grafik ishlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otishi xamda ularning ijodiy faolligini ta'minlashi mumkin.



T. Muxamedov. G'.G'ulomning "Shum bola" qissasi hamda o'zbek xalq ertaklariga ilangan illyustratsiyalar

Darsning tashkiliy-metodik xususiyatlari tizimida o'ituvchining butun dars

jarayonida o'uvchilarning ijodiy ko'tarinkи kayfiyatini saklab turish darsni samarali kechishining muxim shartidir. Bu omillar sirasiga dars jarayonida o'quvchilar bilan o'tkaziladigan yo'naltiruvchi va faollashtiruvchi savol-javoblar, rag'batlantirish, uz vaqtida ko'rsatilgan korreksion ishlar kiradi.

Yana bir muxim metodik jixat: o'quvchilar darsda o'z kompozitsiyalarini yakunlashni yagona maqsad sifatida qabul qilmasliklari lozim. Aks xolda ishni dars oxirigacha yakunlashga intilish natijasida o'quvchilarning kompozitsion mushoxadalari uzining to'laqonli tasviriy talqinini topmasligi mumkin. Shuning uchun o'quvchilar o'qituvchi nazoratida kompozitsiya vaeiantlari ustida ishslashga, ukituvchi xamda sinfdoshlari bilan asar syujeti va unga monand illyustratsiya yaratishga usgG'vor tarzda karashlari lozim. Muxami berilgan topshiriqni moxiyatini tulaqonli anglashdan iborat. Shundagina kompozitsiyani uy vazifasi sifatida yakunlash to'g'ri yo'nalishga ega bo'ladi. Shu ma'noda o'qituvchining ukuvchilarni sinfda bajargan ishlariga mos tarza uyga berilgan topshirikning tafsilotlarini batafsil tushuntirishi x'am muxim.

Uzbek xalk ertaklariga miniatyura uslubida illyustratsiya ishlar ekan, ukuvchilar ertaklar mazmunida ilgari surilgan ezgu maksadlarlarni yana bir bor yodga oladilar, illyustratsiya ishslash mobaynida ularning xam tasviriy savodxonlik darajalari ortadi, xam Shark xalklarining noyob tasviriy san'ati - miniatyura san'atining uziga xos xususiyatlari xaqida elementar tasvvurga ega bo'ladilar.

Xulosa urnida e'tirof etish joizki, miniatyura san'ati uz xususiyatiga kura murakkab san'at turi xisoblanadi. Shuning uchun, ta'kidlab o'tganimizdek, o'quvchilardan aynan miniatyura uslubida illyustratsiya ishslashni talab qilish maqsadga muvofiq emas. Muximi, o'quvchilar mazkur san'at turini tarixiy milliy tasviriy san'at sifatida badiiy-estetik idrok etishlari, uning shaxs ma'naviy kamoloti, estetik madaniyatini tarbiyalash omili ekanligini anglatishda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo'latov S.S "Naqoshlik"
2. Sh. Shoyusupov "O'zbekistonning bugungi miniatyura rangtasviri"